

**KALIFORNIYA QIZIL CHUVALCHANGIDAN OLINGAN
EKSTRAKTINING TARKIBI, XUSUSIYATI VA ODAM TERISIGA TA'SIR
MEXANIZMINI O'RGANISH**

**Bekmirzayev Eshquvvat Ro'ziboyevich
Allaberdiyev Hamro Davron o'g'li**

*Termez iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti o'qituvchilari
Termez iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti talabasi*

Аннотация

Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan ekstraktning tarkibi, uning biologik faolligi va odam terisiga ta'sir mexanizmi o'rganildi. Tadqiqotda chuvalchanglardan olingan ekstraktning immun tizimiga ta'siri, shuningdek, teri kasalliklariga qarshi samaradorligi tahlil qilindi. Ekstrakt organizmda immun tizimini mustahkamlash, teri kasalliklariga qarshi kurashish va viruslarning faoliyatini susaytirishda samarali ekanligi aniqlangan. Ushbu tadqiqot Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan ekstraktni tibbiyotda, ayniqsa teri kasalliklarini davolashda qo'llash uchun yuqori potensialga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Kaliforniya qizil chuvalchang, ekstrakt, immun tizimi, teri kasalliklari, biologik faol moddalar, viruslar, psoriaz, vitiligo, allergik toshmalar, tibbiyot, rehabilitatsiya.

**КАЛИФОРНИЙСКИЙ КРАСНЫЙ ЧЕРВЬ: СОСТАВ, СВОЙСТВА И
МЕХАНИЗМ ВЛИЯНИЯ НА КОЖУ ЧЕЛОВЕКА**

**Бекмирзаев Эшкуват Рузибоевич
Аллабердиев Хамро Давронович**

*Преподаватели медицинского факультета Термезского университета
экономики и сервиса*

*Студент медицинского факультета Термезского университета экономики и
сервиса*

Аннотация

Изучены состав экстракта, его биологическая активность и механизм воздействия на кожу человека, полученные из калифорнийского красного червя. В исследовании был проанализирован эффект экстракта на иммунную систему, а также его эффективность в борьбе с кожными заболеваниями. Экстракт показал свою эффективность в укреплении иммунной системы организма, борьбе с кожными заболеваниями и ослаблении активности вирусов. Это исследование показало, что экстракт, полученный из калифорнийского красного червя,

обладает высоким потенциалом для применения в медицине, особенно для лечения кожных заболеваний.

Ключевые слова: Калифорнийский красный червь, экстракт, иммунная система, кожные заболевания, биологически активные вещества, вирусы, псориаз, витилиго, аллергические высыпания, медицина, реабилитация.

COMPOSITION, PROPERTIES, AND MECHANISM OF ACTION OF CALIFORNIAN RED WORM EXTRACT ON HUMAN SKIN

Bekmirzayev Eshquvvat Ruziboyevich

Allaberdiyev Hamro Davron ogli

Teacher of the Faculty of Medicine, Termez University of Economics and Service

Student of the Faculty of Medicine, Termez University of Economics and Service

Abstract

The composition, biological activity, and mechanism of action of the extract obtained from the Californian red worm on human skin were studied. The research analyzed the effect of the extract on the immune system, as well as its effectiveness in combating skin diseases. The extract was found to be effective in strengthening the immune system, combating skin diseases, and reducing the activity of viruses. This study demonstrates that the extract obtained from the Californian red worm has high potential for use in medicine, particularly in the treatment of skin diseases.

Keywords: Californian red worm, extract, immune system, skin diseases, biologically active substances, viruses, psoriasis, vitiligo, allergic rashes, medicine, rehabilitation.

Kirish: Immun tizimi organizmni kasalliklardan himoya qiluvchi biologik jarayonlar tarmog'idir. Odamda immun tizimi ikki asosiy guruhga bo'linadi: tug'ma va adaptiv (orttirilgan) immun tizimlari. Tug'ma immun tizimi tezkor javob beradi va umumiy himoya ta'minlaydi, adaptiv tizim esa ko'proq maxsus va aniq patogenlarga qarshi samarali javob qaytaradi. Immun tizimining disfunktsiyasi turli kasalliklarga, shu jumladan autoimmun kasalliklar, yallig'lanish kasalliklari va saratonga olib kelishi mumkin.

Kaliforniya qizil chuvalchaglari (*Eisenia fetida*) o'zining biologik faolligi bilan ajralib turadi. Ular nafaqat o'simliklar va mikroorganizmlar uchun, balki odam organizmi uchun ham qimmatli biologik faol moddalarga ega. Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan ekstraktlarning tarkibi va ularning odam immun tizimiga ta'siri, shuningdek, teri kasalliklariga qarshi samaradorligi bu tadqiqotning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan ekstraktning tarkibi va uning odam organizmidagi ta'sir mexanizmini o'rganishdir. Tadqiqotda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

1. Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan ekstraktning biologik tarkibini aniqlash.
2. Ekstraktning odam terisiga va immun tizimiga ta'sirini o'rganish.
3. Teri kasalliklariga qarshi samaradorligini tahlil qilish.

Materiallar va Metodlar: Tajribalar Oltinsoy tumanidagi "Chep" va "Guliston" mahallalarida amalga oshirildi. Kaliforniya qizil chuvalchanglari o'simliklardan ajratib olinib, maxsus quritish jarayonidan o'tkazildi. Ekstraktni olish uchun chuvalchanglar 48 soat davomida pechda quritilib, so'ngra maxsus asboblarda yordamida un shakliga keltirildi. Olingan zardob immunologik testlardan o'tkazilib, odam immun tizimiga ta'sir darajasi o'rganildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalariga ko'ra, Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan ekstraktning tarkibi o'simliklardan olingan zardoblarning yuqori biologik faolligini ko'rsatdi. Ekstraktning odam immun tizimiga bo'lgan ta'siri quyidagicha:

1. Immun tizimi faolligi: Ekstrakt odam organizmida immun tizimini kuchaytirish va meyorlashtirishga yordam beradi. Imunoglobulinlar (IgA, IgG) va sitokinlar ishlab chiqarilishi oshganligi qayd etildi.

2. Teri kasalliklariga ta'siri: Ekstraktning teri kasalliklariga qarshi samaradorligi tekshirildi. Leshmanioz, psoriasis va allergik toshmal kasalliklar kabi teri kasalliklariga qarshi samarali natijalar olingan. Kasalliklar to'g'risida kuzatilgan patologik belgilar kamaydi.

3. Holestirin va qon bosimi: Zardobning qon holatiga ta'siri ham o'rganildi. Natijalarga ko'ra, holestirin darajasi va qon bosimi normallasgan. Bu jarayonning organizmning umumiy holatini yaxshilashdagi roli katta ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama: Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan ekstraktning odam terisiga va immun tizimiga ta'siri, uning biologik faol moddalari bilan bog'liqdir. Ekstraktning immun tizimiga ijobiy ta'siri uning mikroblarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi va tananing himoya tizimini mustahkamlaydi. Teri kasalliklariga qarshi kurashishda, ayniqsa, yallig'lanish jarayonlarining kamayishi va viruslarning oldini olishda bu ekstraktning muhim o'rni bor.

Xulosa: Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan ekstrakt immun tizimini kuchaytirish va teri kasalliklariga qarshi samarali vosita sifatida foydalanish uchun yuqori potensialga ega. Bu ekstraktni tibbiyotda qo'llash, ayniqsa teri kasalliklarini

davolashda keng qo'llanilishi mumkin. Yaqin kelajakda uning samaradorligi va xavfsizligi haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.K. Belamurov. "Полезные калифорниские черви" Москва 2020 год.
2. Ч.Н.Виноградский. Почвоведение и биогумос Москва 2018 год.
3. Bekmirzayev E. R., Xalilov D. B., qizi Aminova M. N. (2023). Bugungi kundagi transport vositalarining atmosferaga kimyoviy chiqindi gazlarini tarqatishining dolzarb muommolari. golden brain. – т. 1. – №. 2. – с. 325-328.
4. Nurova, Z. A., Toshpo'Latov, T. L. A., Doniyorova, G. E., Bahodirjonov, T. L., & Qilichev, J. F. (2022). Organizmning antigenlik, biologik, allergik omillari va ularning ta'sir darajalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(4), 654-657.
5. Бекмирзаев Э. Р. и др. Витамин А //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 3. – С. 92-94.
6. Kilichev, J., To'raqulova, M., Tursunaliyeva, V., & Menglibayeva, N. (2022). Causes, types, symptoms and treatment methods of prostatitis diseases that occur in the human body today. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 2(10), 18-21.
7. Бекмирзаев Э. Р. и др. Мочевина //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 3. – С. 85-87.
8. Kenjayev Y.M., Berdieva S.A., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti. "Yurak bo'lmacha va qorinchalari gipertrofiyasining elektrokardiografiya belgilari o'zgarishlarini tahlili."
9. Mamatqulovich K. Y. Me'da osti bezi o'tkir va surunkali pankreatit kasalliklarini gistomorfologik tahlili //American journal of applied medical science. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – S. 49-53.
10. Mamatqulovich K. Y. et al. Glomerulonefrit kasalligida klinik laborator tahlillarning o'rni va samaradorligi //American journal of applied medical SCIENCE. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – S. 112-120.
11. Mamatqulovich K. Y., Ismatulloevich X. I., Xabibullo o'g'li C. S. Ko'kyo'tal kasalligi va uni oldini olish chora-tadbirlari //American journal of applied medical science. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – S. 18-21.
12. Mamatqulovich K. Y., Fayzullayevna R. S. Husnbuzarlar etiologiyasi, klinikasi va davolash chora-tadbirlari //American journal of applied medical science. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – S. 126-130.

